

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ IQTISODIYOT VA SERVIS UNIVERSITETI**



TASDIQLAYMAN?
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
rektor A. Sattarov
2024- yil

**PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA KAFEDRASI
PEDAGOGLIK KASBIGA KIRISH**

TANLOV FANIDAN

O'QUV DASTURI

Bilim sohasi 100000 - Gumanitar
Ta'lim sohasi: 110000 - Pedagogika
Ta'lim yo'nalishi: 60111300- Texnologik ta'lim (Sirtqi)

Termiz – 2024

Modul / FAN DASTURI
Pedagogika va ijtimoiy gumanitar fanlar fakulteti
 60111300- Texnologik ta'lim

Fan/modul kodi PKK202	O'quv yili 2024-2025	Semestr 2	ECTS – Kreditlar 3	
Fan/mavzu turi Tanlov	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 3 soat	
I.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Pedagoglik kasbiga kirish	12	78	90

Fan maqsadi (FM)	
FM1	Fanni o'qitishdan maqsad – bo'lajak kadrlarga Mutaxassislik bo'yicha atroflicha va chuqur kasbiy bilimlar berish. O'qish va ish faoliyatlarida kasbiy-amaliy ahamiyat kasb etuvchi jismoniy madaniyat bo'yicha kasbiy bilimlar berish, mutaxassislikni anglash, ko'nikma va malakalar hamda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalana olish kabi bilimlar bilan qurollantirishni ko'zda tutadi.
FV1	Fanning vazifasi – bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilariga o'quv muassasalari tartib qoidalari, tashkil etiladigan ma'ruza ,semenar, amaliy mashg'ulotlarning mazmun mohiyatl, kutubxonadan, mexanik qurilma va jihozlardan foydalanish, adabiyotlarni tahlil qilish, mustaqil ish, kurs ishi tayyorlash va ularning ahamiyati, aqliy, intellektual rivojlanish omillari, mutaxassislikni qadrlay bilish uni rivojlantirish va kasbga sadoqat, kasbiy etika, oliy talim tizimi undagi munosabatlar, talaba maqsad vazifalarini anglash kabi bilimlarini shakllanishiga ko'maklashadi.

Mazkur fan 60111300 – Texnologik ta'lim yo'nalishi uchun mo'ljallangan bo'lib, "Pedagoglik kasbiga kirish" fani bo'lajak pedagog o'qituvchilarni tayyorlashda kasbiy bilimlarni puxta egallashga, mutaxassislikni dastlabki sir-sinoat eshiklarini ochishga talabalarga yaqindan yordam beradi.

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar

Pedagoglik kasbiga kirish fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

Mutaxassislik kasbiga kirish bo'yicha

- Pedagoglik kasbiga kirish fanining maqsadi hamda vazifalari;

-O'zbekiston Respublikasidagi jismoniy madaniyat mutaxassislar tayyorlash

tizimi

- Texnologik ta'lim mutaxassislarini jamiyatda tutgan o'rni
- Mutaxassis tayyorlashdagi nazariy va amaliy fanlar va ularning ahamiyati
- Mutaxassislikka qo'yilgan pedagogik talablar
- Zamon talablariga mos yetuk mutaxassis bo'lish uchun egallashi kerak bo'lgan nazariy bilim va amaliy ko'nikmalar
- Jamiyat taraqqiyotida Texnologik ta'lim mutaxassisligini tutgan o'rni
- Mamlakatimizda Texnologik ta'lim mutaxassisligiga berilayotgan e'tibor
- O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi.
- Texnologik ta'lim yonalishi bo'yicha mutaxassis tayyorlash mazmuni.
- Mutaxassislik fanlarning qisqacha mazmuni.
- Texnologik ta'lim nazariyasi, metodikasi va uning mazmuni.
- Texnologik ta'lim tarixi fani va uning mazmuni.
- Mutaxassislik uchun egallanishi kerak bo'lgan nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar.

- Talabalar mustaqil ishini tashkil etishning shakli, usul va vositalari. va uning huquqiy asoslari haqida nazariy bilimlarni egallash haqida bilimlarga ega bo'lishi kerak.

Bo'lajak Texnologik ta'lim o'qituvchilariga o'quv muassasalari tartib qoidalari, tashkil etiladiga ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulotlarning mazmuni mohiyati, kutubxonadan, ustaxona jixozlaridan foydalanish, adabiyotlarni tahlil qilish, mustaqil ish, kurs ishi tayyorlash va ularning ahamiyati, baholash tizimi, aqliy va ijodiy rivojlanish omillari, mutaxassislikni qadrlay bilish uni rivojlantirish va kasbga sadoqat, kasbiy etika, oliy talim tizimi, undagi munosabatlar, talabani maqsad vazifalarini anglash haqida ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.

Fanning o'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviyligi

Pedagoglik kasbiga kirish fani asosiy umumkasbiy va kasbga yo'naltiruvchi fan hisoblanib 2 semestrlarda o'qitiladi.

Dasturni amalga oshirish o'quv rejasida rejalashtirilgan barcha mutaxassislik fanlari shu jumladan, Texnologik ta'lim nazariyasi va metodikasi, umumiy psixologiya, umumiy pedagogika, Gazlamalar materialshunosligi, Chizma geometriya va muhandislik grafikasi, Gazlamalarga ishlov berish praktikumi, konstruksion materiallar texnologiyasi, o'qitish texnologiyalari va loyihalashtirish kabi fanlardan yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlikni talab etadi.

Fanning ta'limdagi o'rni

Pedagoglik kasbiga kirish fani yo'naltiruvchi fan bo'lib, bo'lajak Texnologik ta'lim bo'yicha yosh mutaxassis kadrlarga tanlagan mutaxassisliklari bo'yicha to'liq bilim beradi. Texnologik ta'lim mutaxassisligini puxta egallash va kasbiy mahoratlarini oshirish, kelajakda yetuk kadir bo'lib yetishishlari uchun dastlabki tushuncha va tasavvurlarini boyitishga xizmat qiladi. Shu munosabati bilan

davlatimiz tomonidan chiqarilgan Texnologik ta'lim bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlarni o'rgatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Fanning o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Talabalarning "Pedagogik kasbiga kirish" fanni o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi innovatsion – pedagogik texnologiyalarni tadbiiq qilish muhim ahamiyatga egadir. O'qitishdagi yangi texnologiyalar "Klaster", "Bumerang", "Zanjir", "Agarda men" va "Minar" metodlaridan hamda Pedagogik kasbiga kirishni o'tish jarayonida plakatlardan, tarqatma materiallardan, har xil jadvallardan va vositali hamda bevosita ko'rgazmali qurollardan qurilma va mexanizmlarning tabiiy namunalaridan foydalana olishadi.

Ma'ruza, amaliy mashg'ulotlariga mos ravishdagi ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi.

II. Fanning nazariy qismi (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.I Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi

1-Ma'ruza. Pedagogik kasbi tushunchasi. Pedagogik kasbining rivojlanish tarixi

Bo'lajak kadrlarga Pedagogik kasbiga kirish fanining maqsad vazifalari, fanni pretmeti, manbalari, asosiy tushunchalari haqida nazariy bilimlar berish. Fanning dolzarbligi, mutaxassislar tayyorlashdagi o'rni. Kasbiy bilimlarni egallash uchun qilinishi kerak boladigan ishlar haqida ma'lumotlar berish, "Pedagogik kasbiga kirish" fanini o'rganish uslubi. Fanni tuzulishi va boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorligi. Universitetning korporativ madaniyati. Axborot resurs markazi va undan foydalanish tartibi. 5112000 "Texnologik ta'lim" yo'nalishining umumiy tavsifi. Ta'lim yo'nalishida talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyati. Oliy ta'lim muassasasida ta'lim jarayonining shakillari va turlari. Kadrlar bo'limi faoliyati va vazifalari.

2-Ma'ruza. Pedagogik kasbiga qo'yiladigan talablar. "Texnologik ta'lim" yonalishi bo'yicha mutaxassis tayyorlash mazmuni.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi va uning o'ziga xos xususiyatlari.

"Texnologik ta'lim" ta'lim yonalishi bo'yicha mutaxassis tayyorlash mazmuni. Ta'lim mazmuni tushunchasi. Ta'lim mazmunini aks ettiruvchi hujjatlar: DTS, malaka talablari, o'quv va ishchi o'quv reja, fanning o'quv dasturlari, ishchi fan dasturlari. Klassifikator tushunchasi. Bakalavrlarga qo'yiladigan talablar. "Kasb ta'limi" yo'nalishini mazmuni, darslik va o'quv qo'llanmalar bilan ta'minlanganligi, Texnologik ta'lim tizimini boshqarish. Texnologik ta'lim o'ituvchilari ishlab chiqarish ustalarini tayyorlashdagi talab va meyyorlar. Umumiy o'rta talim maktablarida, kasb hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlaridagi texnologik ta'lim. Pedagogning kasbiy kompetentligi.

3-Ma'ruza. Zamonaviy pedagogning imidji. Pedagogning umumiy kasbiy madaniyati. Mutaxassis tayyorlashdagi nazariy fanlar va ularning mazmuni. Mutaxassislikka qo'yiladigan pedagogik talablar.

Texnologik ta'lim tarixi. Texnologik ta'lim nazariyasi va metodikasi. Fanlarni mazmun mohiyati mutaxassis tayyorlashdagi o'rni va ahamiyati yuzasidan

nazariy ma'lumotlar berish. Mutaxassis tayyorlashdagi amaliy fanlar va ularning mazmuni. Fanlarni mazmun mohiyati, tashkillash usullari. Ish joyi, ish kiyimlari haqida nazariy malumotlar berish.

Mutaxassislikka qo'yiladigan pedagogik talablar. Texnologik ta'lim o'qituvchisiga qo'yiladigan pedagogik talablar. Pedagogning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi. O'z kasbini anglash, sevish. Kasbiy bilim, pedagogik mahorat. O'z ustida ishlash. Aqliy salohiyat. Shaxsiy na'muna bo'la olish, yetuk mutaxassis bo'la olish. To'g'ri so'zlik, irodali, intizomli, xushfelli bo'lish. Qattiqatlik, adolatlik, kuchli psixolog bo'lishlik. Pedagogni burchi, masuliyati, jamoadagi obro'yi. O'quvchilarni ergashtira olishlik. Tashqi ko'rinish, kiyinish, amaliy harakatlarni ko'rsata olish, tushuntira olish, nutqni ravonligi haqida ma'lumotlarga ega qilish. Modul. Mutaxassislik uchun egallanishi kerak bo'lgan nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar.

4-Ma'ruza. Pedagoglik faoliyatda ta'lim tarbiyaga oid tushunchalar. Talabalar mustaqil ishini tashkil etishning shakli, usul va vositalari.

Talabalar mustaqil ishini tashkil etishning shakli, usul va vositalari. Mustaqil ishning mazmuni. Ma'ruza amaliy mashg'ulotlarda mustaqil ishlarni tashkil etish shakillari. Mustaqil ish, kurs ishi, laboratoriya mashg'ulotlari, bitiruv malakaviy ishi, magistrlik dissertatsiyalari hamda referatlar yozish tartibi va himoya qilish. Taqdimotlar tayyorlash.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarida talabalar Pedagoglik kasbiga kirish fanidan ko'nikma va malakalarga ega ekanliklari aniqlanadi. Amaliy mashg'ulotlarda ma'ruza mashg'ulotlaridagi mavzular bo'yicha berilgan ma'lumotlarni, Pedagoglik kasbiga kirish fanining maqsad vazifalari. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi. "Texnologik ta'lim" yonalishi bo'yicha mutaxassis tayyorlash mazmuni. Mutaxassislik fanlarning qisqacha mazmuni. Mutaxassis tayyorlashdagi nazariy fanlar va ularning mazmuni. Mutaxassis tayyorlashdagi amaliy fanlar va ularning mazmuni. Mutaxassislikka qo'yiladigan pedagogic talablar. Mutaxassislik uchun egallanishi kerak bo'lgan nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar. Talabalar mustaqil ishini tashkil etishning shakli, usul va vositalari. Nazariy bilim va malakalarni qay darajada o'zlashtirilganligini aniqlanadi, baholanadi hamda ularni bilimlari yanada mustahkamlanadi.

Amaliy mashg'ulotlarda tavsiya etiladigan mavzular.

1-Mavzu. Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining maqsad va vazifasi

Fanning dolzarbligi, mutaxassislar tayyorlashdagi o'rni. Kasbiy bilimlarni egallash uchun qilinishi kerak boladigan ishlar haqida ma'lumotlar berish. Fanni tuzulishi va boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorligi. Universitetning korporativ madaniyati. Axborot resurs markazi va undan foydalanish tartibi. Ta'lim yo'nalishida talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyati. Oliy ta'lim muassasasida ta'lim jarayonining shakillari va turlari.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi va uning o'ziga xos xususiyatlari. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va "Ta'lim to'g'risida"gi qonunda mutaxassislar tayyorlashga qo'yiladigan talablar. Ta'lim modeli tushunchasi. Shaxs davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan va ishlab chiqarish. O'zbekiston Respublikasida kasb ta'limini rivojlanishi va unga berilayotgan e'tibor.

2-Mavzu. Texnologik ta'lim o'qituvchisiga qo'yiladigan pedagogik talablar. Virtual pedagogikaning shaxs shakllanishiga ta'siri

Pedagogning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi. O'z kasbini anglash, sevish. Kasbiy bilim, pedagogik mahorat. O'z ustida ishlash. Aqliy salohiyat. Shaxsiy na'muna bo'la olish, yetuk mutaxassis bo'la olish. To'g'ri so'zlik, irodali, intizomli, xushfelli bo'lish. Qattiyatlilik, adolatlilik, kuchli psixologik bo'lishlik. Pedagogni burchi, masuliyati, jamoadagi obro'yi. O'quvchilarni ergashtira olishlik. Tashqi ko'rinish, kiyinish, amaliy harakatlarni ko'rsata olish, tushuntira olish, nutqni ravonligi haqida ma'lumotlarga ega qilish.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni

Talaba mustaqil ta'limni tayyorlashda muayan fanning xususiyatlari hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi.

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;

- tarqatma materiallar ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;

- maxsus adabiyotlar bo'yicha mavzular ustida ishlash;

- talabani o'quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganish;

- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;

Tavsiya etiladigan mavzular:

Fanning maqsad vazifalari.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi.

"Texnologik ta'lim" yonalishi bo'yicha mutaxassis tayyorlash mazmuni.

Mutaxassislik fanlarning qisqacha mazmuni.

Mutaxassis tayyorlashdagi nazariy va amaliy fanlar va ularning mazmuni.

Texnologik ta'lim tarixi va uning mazmuni.

Talabalar mustaqil ishini tashkil etishning shakli, usul va vositalari.

Tanlangan kasb turlarining nazariy va amaliy ahamiyati.

Dasturning informatsion - uslubiy ta'minoti

V. Ta'lim natijalari / (shakllanadigan kompetentsiyalar)

Talaba bilishi kerak:

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- Fanning asosiy tushunchalari va mohiyati, o'ziga xos xususiyatlari xossalari haqida *tasavvur va bilimga ega bo'lishi*;

- Pedagoglik kasbiga kirish fanining mazmuni va metodlari haqida *ko'nikmalariga ega bo'lishi*;

- Bo'lajak mutaxassislarga qo'yiladigan talablar va tasniflashni bilishi, malaka hosil qilishi va amalda qo'llay olish *malakasiga ega bo'lishi kerak*.

VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- ko'rgazmali-ko'rsatmali vositalar;
 - interfaol keys-stadilar;
 - plakatlar, chizmalar, maketlar, slaydlar va videoroliklar.
1. Jihozlar va uskunalar, moslamalar: Texnologik ta'lim nazariyasi va metodikasi bo'yicha kerak bo'ladigan barcha vositalar, turli xil plakatlar, elektron doska–Hitachi, LCD monitor, elektron qurilmalar.
 2. Video audio uskunalar: video, audiomagnitofon, ovoz kuchaytirgich.
 3. Kompyuter va multimediali vositalar: kompyuter, proektor, DVD-diskovod, Web- kamera, video – ko'z (glazok).

VII. Kreditlarni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.

Asosiy darslik va o'quv qo'llanmalar

1.Karamatova D.S. Pedagogik kasbiga kirish. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2022. 117 b.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent, O'zbekiston, 2016. - 56 b.
2. Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi - inson manfaatlarini ta'minlash taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. -T.: O'zbekiston, 2017.
3. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Xalq so'zi gazetasi, 2017 yil 16 yanvar, №11.
4. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish-ning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi -T .: O'zbekiston, 2014. -46 b.
- 6.Migranova E.A. va boshq. Kasbiy pedagogik faoliyatga kirish. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2018. 198 b.

Internet saytlari

1. www.tdpu.uz

2. www.ziyonet/uz
3. www.pedagog/uz
4. www.ziyonet/Uz
5. www.bilim/uz
6. www.gov/uz.

Mazkur o'quv dasturi Termiz iqtisodiyot va servis universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.

Fan/modul uchun mas'ullar:

Eshkarayev Ulugbek Choriyevich-Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
"Pedagogika va psixologiya" kafedrasi dotsenti.

Taqrizchilar:

1. Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor, TerDU kafedra mudiri M.X.Shomirzayev
2. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, TISU kafedra mudiri T.X.Avliyoqulov.